



KOREYS TILINING JAHON VA O’ZBEKISTONDA IKKINCHI XORIJIY TIL SIFATIDA OMMALASHUVI TENDENSIYALARI

**Saidova Moxinur Murodovna
BuxDU tayanch doktoranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada so’nggi yillarda koreys tilining shiddat bilan dunyo ta’lim tizimiga kirib borish tendensiyalari va sabablari o’rganiladi, xususan uning O’zbekistondagi o’rganilish holati va darajasi, hamda uni ommalashtirish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: ikkinchi xorijiy til, dunyo ta’lim tizimi, koreys tili ta’limi, Koreya to’lqini, ommalashuv, koreys tili o’qituvchilari, integrativ yondashuv

Аннотация. В данной статье изучены тенденции и причины быстрого проникновения корейского языка в мировую систему образования в последние годы, в частности состояние и уровень его изучения в Узбекистане, а также меры, принимаемые по его популяризации. проанализировано.


Ключевые слова: второй иностранный язык, мировая система образования, корейское языковое образование, корейская волна, популяризация, преподаватели корейского языка, интегративный подход

Abstract. This article examines the trends and reasons for the rapid penetration of the Korean language into the world education system in recent years, in particular the state and level of its study in Uzbekistan, as well as measures taken to popularize it. analyzed.

Key words: second foreign language, world education system, Korean language education, Korean wave, popularization, Korean language teachers, integrative approach

Koreys tilini mакtabdan keyingi fakultativ dars yoki o’quv rejaga rasmiy kiritilgan fan sifatida o’qitiladigan o’rta umumta’lim muassalari faoliyat olib boradigan davlatlar soni dunyo bo’ylab 2014-yilda 26 tadan 2023-yili 47 taga ko’paydi(1-jadvalga qarang). Bu orqali dunyo bo’ylab 2023-yilda 202745 o’quvchi maktabda koreys tilini o’rgandi. Birgina O’zbekistonning o’zida 2023-2024-o’quv

yilida 12776 umumta'lim maktab o'quvchilari koreys tilini o'rganishgan. Bu “Koreys tili ta'lifi shiddati” butun dunyo bo'ylab tez tarqalayotganidan dalolatdir. Hozirda koreys tili chet tili fani sifatida kiritilgan mamlakatlar qatoriga Xitoy, Yaponiya, AQShning ayrim shtatlari, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Braziliya, Paragvay, Avstraliya, Tailand, Filippin, Turkiya, Ukraina, Qozog'iston, Vietnam(2021-yildan Vietnam ta'lif vazirligi koreus tilini birinchi xorijiy tillar sifatida qo'shdi), Indoneziya, Laos, Hindiston, Shri Lanka, Paragvay va boshqalar qatoriga, tabiiyki, O'zbekiston ham kiradi¹.



Koreys tiliining bu kabi ommalashuvida Koreya ta'lif vazirligi tomonidan 2021-yil 14-martda e'lon qilgan “2021-yilda xorijda koreys tili ta'limi qo'llab-quvvatlash loyihasining asosiy rejası”ni alohida o'rinn tutadi. Bu chet eldag'i boshlang'ich va o'rta maktablarda koreys tilini majburiy chet tili fani sifatida o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi loyihadir. Ushbu loyihaning maqsadlari quyidagicha:

1. Maktablarda koreys tilini o'rganadigan guruhlarni ko'paytirish;

¹ <https://koreajoongangdaily.joins.com/news/2024-05-02/national/kcampus/Getting-the-hangul-of-it-More-countries-embrace-Korean-as-a-second-language/2034373#>

2. Koreys tili o'qituvchilar qo'llab-quvvatlash – maqsadini 3 xil yo'l orqali amalga oshirish ko'zda tutilgan: a)koreyalik o'qituvchilarni joylarga yuborish; b) joylardagi koreys tili o'qituchilari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish va d) joylardagi koreys tili o'qituchilarini Koreyaga stajirovkaga yuborish;
3. Koreys tili darsliklari va qo'llanmalarini ishlab chiqish².

Loyihaning amaldagi natijasini O'zbekiston misolida tahlil qilamiz (2-jadval)

2-jadval

Maqsadlar	Natijalar
Maktablarda koreys tilini o'rganadigan guruhlarni ko'paytirish	O'zbekistonda koreys tili o'qitiladigan maktablar soni 2022-yil 33 tadan 2023 yil 57taga oshdi
Koreys tili o'qituvchilar qo'llab-quvvatlash	2022-yil avgust oyida 9ta koreyalik o'qituvchilar delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurib, o'zbek koreys o'qituvchilari bilan bilim va tajribalari bilan bo'lishishdi va bu kelasi yilda ham onlayn ham offlayn tarzida davom etdi
joylardagi koreys tili o'qituchilari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish	A.Avloniy tadqiqot institute va Koreya ta'lim markazi bilan hamkorlikda 2024-yil yanvar oyida koreys tili o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari tashkil eyildi
joylardagi koreys tili o'qituchilarini	“O'qituvchilar almashinushi Koreya – O'zbekiston 2024” kabi

² <https://www.news1.kr/articles/?4240079>

[출처] 13억 인도, 한국어 제2외국어로, 베트남은 제1 외국어로 승격, 인구 절반이 한국어 할 줄 아는 미얀마 등등 '21년 세계 43개국 20억(인류 1/3) 이상이 제2외국어 채택..|작성자파리]

	Koreyaga stajirovkaga yuborish	lohihalar orqali Koreyaga stajirovkaga boorish imkoni yaratildi
Koreys tili darsliklari va qo'llanmalarini ishlab chiqish		2023-2024-o'quv yili uchun Koreya ta'lif vazirligi va Xalqaro koreys ta'limi fondi tomonidan O'zbekiston uchun maxsus o'zbek va rus tillarida PreA1 darsligi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qaroriga ko'ra, koreys tili mamlakatimizda o'rganiladigan 10ta ustuvor xorijiy tillar ro'yxatiga qo'shildi. Buning asosida Respublika ta'lim markazi va Koreya Respublikasi elchixonasi huzuridagi Koreya Respublikasi ta'lim markazi o'rtaida 2021-yil 8-avgust kuni O'zbekistonda koreys tilini o'qitish bo'yicha o'zaro hamkorlik memorandumini imzolangan edi.

Bundan tashqari, Koreya ta'lim vazirligining 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, koreys tilini ikkinchi chet tili sifatida qabul qilgan davlatlar soni esa 2014-yildagi 11 tadan o'tgan yili 23 taga ko'paygan³. Xususan, ushbu davlatlar orasida O'zbekiston ham mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdag'i PF-27sonli farmoniga ko'ra, 2023-yil 1-sentabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiyl o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilgani sababli ikkinchi xorijiy til sifatida qabul qilingan xorijiy tillar ro'yxatiga koreys tili ham kiritildi. Bu shundan dalolat beradiki, koreys tili O'zbekistonda eng ommalashgan chet tillaridan biri bo'lib, u hatto O'zbekistonning ikkinchi xorijiy tillar o'quv dasturida o'z aksini topgan. Shuningdek, o'qishga kirish imtihonlarida koreys tilini fan sifatida qabul qilgan davlatlar soni ham ortib bormoqda. 2014-yilda bor-yo'g'i 4 ta davlat bo'lgan bo'lsa, o'tgan yili ularning soni 10 taga ko'paydi, jumladan, O'zbekiston, Yaponiya, Fransiya, Malayziya va boshqalar.

³ <https://blog.naver.com/o2423682/222292828554>



Research Science and
Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI

VOLUME 2, ISSUE 7, 2024. JULY

ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024

ISSN 2992-8869




Research Science and
Innovation House

Koreys tilining bunday shiddat bilan dunyo ta'lim tizimida xorijiy til sifatida o'z o'rnini egallab borishi sababi asosan koreya madaniyati (K-culture)ga borib taqaladi. Hozirgi kunda Koreyaning mashhur madaniyati va ko'ngilochar sanoatining tobora ommalashib borishi fenomeniga ishora qilish uchun ishlatiladigan Hallyu yoki "Koreya to'lqini" atamasi birinchi marta 1990-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan. Televideniya va ommaviy axborot kuchi yordamida koreys serial(dorama) va kinolari, qo'shiqlari (K-pop) dunyo bo'y lab millionlab o'z muxlislarini topdi. Bu esa o'z navbatida ularning koreys madaniyatiga bo'lgan qiziqishini uyg'otib kuchaytirdi. Hozirda, chet elliklar orasida Koreya va koreys tiliga bo'lgan qiziqishning sabablari orasida aynan koreya madaniyati birinchi o'rinda turadi. Bunga yorqin misol sifatida, Qirol Sejong institutining 2023-yilda talabalarning o'rganish maqsadlari bo'yicha o'tkazgan so'rovi natijasini keltiramiz⁴. Bu so'rov 79 ta davlatda 15325 kishi orasida olib borilgan. So'rov nomina natijasida shuni aytish mumkinki (3-jadvalga qarang), eng katta ulush (32,07%) "Koreya va koreys madaniyatiga bo'lgan qiziqish"ga tegishli bo'ldi. Undan keyingi o'qinlar esa quyidagicha taqsimlandi: ikkinchi o'rinda "Koreys tiliga qiziqish" (23,5%) → "Koreyada o'qish" (20,6%) → 'Koreya kompaniyasida ish bilan bandlik' (12,9%). Ko'rinish turibdiki, Koreyada o'qimoqchi va ishlamoqchi bo'lgan respondentlar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Research Science and Innovation House

⁴ <https://v.daum.net/v/20240423050108749>

3-jadval



Xulosa qilib aytganda, koreys tiliing ommalashuvi tendensiyasi yildan yilga o'sib bormoqda va bu uchun Koreya hukumati har tomonlama harakat qilmoqda. Biroq tilni o'rganishga bo'lgan talab kuchaygan sari, uni o'rgatish uchun pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, dars jarayonida integrativ yondashuvdan foydalangan holda o'quvchilarga koreys tilini o'qitish usullarining yetishmovchiligi kabi muammolar бугунги таълим олдида ҳал қилишини кутаётган масалаларdir.

Yuqoridagi taklif va xulosalardan kelib chiqib tanlagan mavzumiz va amalga oshirayotgan tadqiqotimiz ayni damda ta'lim sifatini rivojlantirish, o'quvchilar ehtiyojini qondirishda dolzarb ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidova M.M. Bilimlarga asoslangan jamiyatda o'quvchilarga ikkinchi xorijiy tilni o'rgatishning maqsad va vazifalari. Pedagogik mahorat № 6, 2024
2. Saidova M.M. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarga ikkinchi xorijiy tilni o'qitishda Koreya ta'lim dasturidan foydalanishning ahamiyati. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024



3. Saidova M. Integrativ yondashuv asosida koreys tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. Talqin va tadqiqotlar, № 13(50), 2024
4. Saidova M. Важность обучения второму иностранному языку и современным профессиям, World of Scientific news in Science Journal, Vol2 Issue 6, 2024.
5. Saidova M. Ikkinchı xorijiy tilni o'qitishda ikki mamlakat madaniyatini o'rgatish prinsipining amaldagi tadbipi (koreys tili dasrligi misolida). Zamonaviy fan va ta'lif yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, Vol 2 Issue 6, 2024.
6. N.Dilova. Uzluksiz ta'lif tizimida “lifelong learning” konsepsiyasini Joriy etish imkoniyatlari//“Zamonaviy dunyo ta'limi: yangi davr muammolari – yangi yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024-yil 17-may kuni Andijon davlat universiteti, 46-49-betlar
7. Н.Дилова Darsda samarali ta'lif usullaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati//“Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali volume 2, issue 1, 2024. january. ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869
8. Н.Дилова Oliy ta'lifda o'qitiladigan ijtimoiy gumanitar fanlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash mazmuni//“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 11
9. <https://www.news1.kr/society/education/4240079>
10. <https://blog.naver.com/o2423682/222292828554>
11. <https://v.daum.net/v/20240423050108749>

Research Science and Innovation House